

QASHQADARYO TOPONIMLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Shodiyeva Hulkar Ismoil qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasida
Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
E-mail: shodiyevahulkar01@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyati toponimlarining shakllanish xususiyatlari lingvistik hamda tarixiy-geografik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Hudud toponimiyasida etnonimlarning o'rnini alohida ajratib ko'rsatiladi hamda ular orqali o'zbek xalqining qadimiy urug'-aymoq nomlari saqlanib qolganligi ilmiy asosda izohlanadi. Tadqiqot davomida Qashqadaryo toponimlari nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va geografiya fanlari uchun ham muhim manba ekani ta'kidlanadi.

Kalit sozlar: Qashqadaryo, Nasaf, etnonim, toponim, gidronim, tuman, shahar, qishloq.

Annotation: This article examines the formation features of toponyms in the Kashkadarya region from linguistic, historical, and geographical perspectives. Special attention is given to the role of ethnonyms, which preserve the names of ancient Uzbek tribes and clans. The research highlights that Kashkadarya toponyms serve as an important source not only for linguistics but also for history, ethnography, and geography.

Key words: Kashkadarya, Nasaf, ethnonym, toponym, hydronym, district, city, village.

Qashqadaryo viloyatining maydoni 28,6 ming km² (28 600 km²) ni tashkil etadi. Viloyat O'zbekistonning janubi-sharqida, Qashqadaryo havzasida joylashgan. Uning tarkibiga 13 ta tuman (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi va G'uzor), 12 ta shahar (Qarshi, Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Yangi Nishon, Tallimarjon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi va G'uzor) hamda 5 ta shaharcha (Dehqonobod, Miroqi, Nuriston, Eski Yakkabog' va Pomuq) kiradi. Viloyatning ma'muriy markazi – Qarshi shahri hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyatidagi toponimlarning o'ziga xos tarixi mavjud. Masalan, Qarshi shahri bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu shahar qadimda turli nomlar bilan atalgan: Nasaf, Naxshab, Nikshapa, Ksenepa. Ba'zi manbalarda esa XIV asrlarda shahar Navkat deb tilga olinadi. "Nav" so'zi "yangi", "kat" esa "qo'rg'on" ma'nosini bildiradi. Qarshi nomining kelib chiqishi haqida turli fikr va taxminlar mavjud. Masalan, mashhur sharqshunos olim V. V. Bartoldning ta'kidlashicha, shahar nomi mo'g'ul xoni Kebekxon qurdirgan Qarshi (ya'ni "saroy") nomi bilan bog'liqdir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham "Qarshi" atamasi "saroy" va "qarama-qarshi turish" ma'nolarida ishlatilgani qayd etilgan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida bu atama mo'g'ulcha "go'rxona" – ya'ni maqbara ma'nosini anglatishi, ushbu nom esa mo'g'ullar istilosidan keyin paydo bo'lgani haqida keltirib o'tgan.

Toponimist olim T. Nafasovning qayd etishicha, XV–XVI asrlarda xon avlodlari, ulug' ruhoniylar va boshqa mo'tabar shaxslarning qabri uchun qurilgan dahma va maqbaralar ham "Qarshi" deb atalgan. Chunki o'sha davr odatlariga ko'ra, bunday

shaxslarning jasadi maqbara ichiga qo'yilgan, maqbaraning o'zi esa saroy – ya'ni "Qarshi" ichida joylashgan.

Qashqadaryo O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan dastlabki viloyatlardan biridir. Aholining asosiy qismini o'zbeklar, tojiklar va turkmanlar tashkil etadi. Shuningdek, voha hududida mang'it, saroy, qovchin, qatag'on, qutchi, qalmoq, qipchoq, kenagas, qirq, qang'li, qiyot hamda qo'ng'irot kabi qabilalar istiqomat qilgan. XX asr boshlariga qadar hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida yashagan aholining aksariyati urug'-aymoqlarga bo'lingan holda yashagan. Shu boisdan Qashqadaryo viloyati toponimlari orasida etnonimlar muhim o'rin egallaydi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, viloyat toponimiyasida o'zbeklarning ko'plab urug'-aymoq nomlari saqlanib qolgan.

Jumladan, Qarshi tumanida joylashgan Qovchin qishlog'i bunga yorqin misol bo'la oladikim, ushbu qishloq nomi aynan shu nomdagi qabila va urug' nomidan olingan. Yoki bo'lmasam Naymancha qishloqchasi ham xuddi shunday qabila nomidan olib qo'yilgan.

Har bir hudud o'zining tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, aholining urf-odatlarini, etnografiyasi va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Tabiiyki, bu holat o'sha joylarning nomlarida ham aks etadi. Xuddi shuningdek, Qashqadaryo viloyati ham o'zining tabiati, aholisi va xo'jalik faoliyati bilan boshqa mintaqalardan ajralib turadi.

Geografik joy nomlari tarkibida hududning tabiiy xususiyatlarini ifodalovchi so'zlar keng qo'llanadi. Masalan, tog' nomlari tarkibida "tog'", "tov" kabi birliklar uchraydi: Yetimtov, Kakliktov, Qo'ng'irtov, Oqboshtov, Kosontov. Shuningdek, "tosh" so'zi asosida yaratilgan toponimlar ham mavjud: Tuyatosh, Oqtosh. Dovonlar nomida esa "bel", "oshuv" terminlari qo'llanadi: O'rtabel, Qizilbel, Tuyabel va boshqalar. Soyliklar nomida esa ko'pincha "soy" komponenti ishlatiladi: Jildirsoy, Ichaksoy kabilar shular jumlasidandir.

Qashqadaryo viloyati gidronimlari tarkibida suv bilan bog'liq bo'lgan buloq, daryo, soy, sho'r, suv, chashma, quduq kabi terminlar keng uchraydi. Masalan: Oqsuv, G'uzordaryo, Jinnidaryo, Ichaksoy kabi nomlarda bu unsurlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday terminlarning qo'llanishi hudud aholisi hayotida suv manbalarining qadimdan muhim o'rin tutganidan dalolat beradi.

Toponimlar tarkibida shuningdek majoziy ma'noga ega joy nomlari ham uchraydi. Masalan, Qamashi tumanidagi Yetimtov nomi "yolg'iz tog'" ma'nosida qo'yilgan. Yakkabog' tumanidagi Ichaksoy toponimi esa shaklan "ichakka o'xshab uzun va ingichka" soy bo'lgani uchun shunday atalgan. Nishon tumanidagi Saksondara nomi esa "serdala, daralari ko'p" ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, G'uzor tumanida joylashgan Lagandi qishlog'i relyefining lagan shakliga o'xshashligi sababli shunday nom olgan. Bu kabi misollar Qashqadaryo viloyati toponimlarida xalqning kuzatuvchanligi, tasviriy ifoda vositalaridan foydalanganligi va tabiatni o'ziga xos tarzda nomlash an'anasi yaqqol aks etganidan dalolat beradi.

Ba'zi toponimlar vaqt o'tishi davomida fonetik o'zgarishlarga uchrab, o'zining dastlabki shaklini yo'qotadi. Natijada ular yangicha talaffuzda mustahkamlanib, keyinchalik ham shu ko'rinishda saqlanib qoladi. Xususan, Qashqadaryo viloyatidagi ayrim joy nomlari ham shu ko'rinishda saqlanib hozirgi foydalanilayotgan toponimlar ko'rinishiga kelgan. Masalan, Qarshi tumanida joylashgan Potron qishlog'i dastlab "Padaron" shaklida tilga olingan bo'lib, u "otalar shahri" ma'nosini bildirgan. Vaqt o'tishi bilan fonetik qisqarish jarayonida bu nom o'zgarib, hozirgi Potron ko'rinishida

mustahkamlanib qolgan. Koson tumani bir paytlar Kushan shaklida tilga olingan bolsa endilikda fonetik o'zgarishlarga uchrab mahalliy tilda Koson deya talaffuz etiladi.

Qashqadaryo viloyati toponimlari tizimida kishilar xo'jalik faoliyati va turmush tarziga bevosita aloqador bo'lgan nomlar ham muhim o'rin egallaydi. Bunday toponimlar, odatda, aholining qadimiy mashg'ulotlari, mehnat jarayonlari, ishlab chiqarish faoliyati hamda turli kasb-hunarlar bilan bog'liq bo'lib, ular hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi til birliklari sifatida shakllangan. Bunday toponimlar sirasiga misol sifatida Chiroqchi nomini keltirish mumkin. Mazkur toponim dastlab "chiroq yasovchi hunarmandlar" ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, u aholining qadimiy kasb-hunar faoliyatini ifodalaydi. Vaqt o'tishi bilan ushbu nom toponimik birlik sifatida mustahkamlanib, bugungi kunda tuman nomi sifatida qo'llanib kelmoqda. Paxtachi, Paxtakor singari nomlar orqali esa ushbu hudud aholisi paxta va uni yetishtirish faoliyati bilan shug'ullanganini qisman bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari Koson tumanida joylashgan Arabxona qishlog'i ushbu joy nomi yashaydigan aholi nomi bilan atalganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yangi geografik obyektlarga nom berishda avvalo shu hududning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy voqealari hamda ulkan shaxslar nomi bilan bog'lashga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, Qashqadaryo viloyati toponimlari ham hududning tabiiy-geografik sharoitlari, tarixiy jarayonlari va ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Bunday nomlar xalqning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari hamda tarixiy xotirasini aks ettiradi va shu bois ularning barqarorligi hamda uzoq vaqt davomida saqlanishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:

1. Dusimov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi", 1977.
2. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi", 1988.
3. Qorayev S. Toponimika. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2006.
4. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2005.
5. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Toshkent: "Muharrir", 2009.
6. Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. Toshkent: "O'zbekiston", 1994.